

## **IMOM ABU HUSAYN AHMAD IBN MUHAMMAD QUDURIYNING HAYOTI, ILMIY FAOLIYATI, ASARLARI: FIQHIY MEROSI TAHLILI**

**Muxsimova Aziza Shoaxror qizi**

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islomshunoslik” mutaxassisligi 2-kurs magistranti

+99897 1747515

azizamuxsimova412@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola Imom Abu Husayn Ahmad ibn Muhammad Quduriyning hayoti va ijodi, ilmiy faoliyati, fiqhiy merosi, Imomning ta’lim olgan ustozlari, ta’lim bergan shogirdlari haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan. Maqolada Imom Quduriy qoldirgan ilmiy asarlarning mazmuni, ularning islom huquqshunosligi rivojiga ta’siri va zamonaviy fiqhiy tadqiqotlar uchun ahamiyati yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar va iboralar:** *Imom Quduriy, hanafiy mazhabi, fiqh, ustoz, shogird, asar, ilmiy faoliyat, ilmiy meros, islom huquqshunosligi.*

## **ЖИЗНЬ, НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ТРУДЫ ИМАМА АБУ ХУСАЙНА АХМАДА ИБН МУХАММАДА КУДУРИ: АНАЛИЗ ЕГО ФИКИХСКОГО НАСЛЕДИЯ**

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья содержит информацию о жизни и творчестве имама Абу Хусайна Ахмада ибн Мухаммада Кудури, его научной деятельности, фикихском наследии, а также о его учителях и учениках. В статье рассматривается содержание научных трудов, оставленных имамом Кудури, их влияние на развитие исламского права и их значение для современных исследований.*

**Ключевые слова:** *Имам Кудури, ханафитский мазхаб, фикх, учитель, ученик, научная деятельность, научное наследие, исламское право, труды.*

## **THE LIFE, SCHOLARLY ACTIVITY, AND WORKS OF IMAM ABU HUSAYN AHMAD IBN MUHAMMAD AL-QUDURI: AN ANALYSIS OF HIS FIQH LEGACY**

### **ABSTRACT**

*This article provides information about the life and works of Imam Abu Husayn Ahmad ibn Muhammad al-Quduri, his scholarly activities, fiqh legacy, as well as his teachers and students. The paper analyzes the content of the scholarly works left by*

*Imam al-Quduri, their impact on the development of Islamic jurisprudence, and their significance for contemporary research.*

**Key words:** *Imam al-Quduri, Hanafi school, fiqh, teacher, student, scholarly activity, academic legacy, Islamic jurisprudence, works.*

## KIRISH

Imom Abu Husayn Ahmad ibn Muhammad Quduriy hanafiy fiqhining eng mashhur ulamolaridan biri, asarlarida ilmiy metodologiya va huquqiy tahlilni rivojlantirgan yirik islom huquqshunosidir. Uning ilmiy merosi bugungi kungacha fiqh va islom huquqshunosligi sohasida muhim o‘rin tutadi. Imom Quduriyning hayoti, ilmiy faoliyati va asarlari, shubhasiz, o‘z davrida katta ta’sirga ega bo‘lgan.

Imom Quduriyning hayoti va ilmiy faoliyati, uning ilmiy asarlarini o‘rganish, shuningdek, fiqhiy merosini tahlil qilish uning fiqhiy ilmiy tizimini va o‘sha davrda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sharoitlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Imom Quduriyning ilmiy faoliyatini, ta’lim olgan ustozlarini va ta’lim bergan shogirdlarini o‘rganish uning ilmiy merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

## ASOSIY QISM

Imom Quduriyning to‘liq ismi Abu Husayn Ahmad ibn Muhammad<sup>1</sup> ibn Ahmad ibn Ja’far ibn Hamadon Quduriy<sup>2</sup> Bag‘dodiy<sup>3</sup> Hanafiy. Faqih Imom Quduriy nomi bilan tanilgan. Otasining ismi Muhammad ibn Ahmad ibn Ja’far ibn Hamdon Abu Bakr Quduriy. Imomni ismini Muhammad ibn Ahmad<sup>4</sup> deb keltirilgan o‘rinlar ham mavjud.<sup>5</sup> Olimlar Imomga Quduriy nisbatini berilishi borasida ixtilof qilganlar va 3 gapni aytganlar. Ular:

1. Qozon yasagani yoki sotgani uchun shu nisbat berilgan.
2. Bag‘doddagi “Quduro” shahriga nisbatan berilgan.
3. Bunday nisbat berilishda hech qanday asos yo‘q.

Al-Quduriy nisbati bilan yana Abu Ja’far Muhammad ibn Ahmad Ramliy<sup>6</sup>, al-Haysam ibn Xalaf<sup>7</sup>, Saloh Tarobulusiy singari olimlar ham tanilgan.

Imom Rahoviy Hanafiyning va Imom Toshko‘purzodalarning fikrlariga ko‘ra Imomga Bag‘doddagi shaharning nisbati berilishi bahsli masala. Olimlar

<sup>1</sup> Ahmad ibn Muhammad Quduriy. Tajrid. “Dorul salom”, Qohira: 2004, – B. 1/6. Muhaqqiq Dr. Ali Juma Muhammad, Dr. Muhammad Ahmad Siroj.

<sup>2</sup> Ahmad ibn Muhammad Quduriy. Tajrid. “Dorul salom”, Qohira: 2004, – B. 1/6. Muhaqqiq Dr. Ali Juma Muhammad, Dr. Muhammad Ahmad Siroj.

<sup>3</sup> Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniyy. Al-Ansob. “Dorul maorif”, Haydarobod: 1962, – B. 579.

<sup>4</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. Doru ihyoil kutub“, Qohira :1993, B. 249.

<sup>5</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. Doru ihyoil kutub“, Qohira: 1993, B. 249.

<sup>6</sup> Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyaru a’lamun nubalo. “Risola”, Bayrut : 1996, – B. 363

<sup>7</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. Doru ihyoil kutub“, Qohira: 1993, – B.249.

Bag‘doddagi Quduro shahri borasida hech qanday ma‘lumot uchratmaganlarini ta‘kidlab o‘tishgan. Katta tarixchilardan Xatib Bag‘dodiy, ibn Javziy, Ibn Xallikon, Ibn Vardiy, Imom Zahabiy, Ibn Qutlubg‘o va Toshko‘purzodalar Imomga bunday nisbatni berilishining hech qanday asosi yo‘q deb hisoblaydilar. Ammo Imomga bu nisbatning berilishi uning qozon yasagani yoki sotgani sababidan berilgan deyuvchilar soni ko‘p va bu sabab aksar tarjimai-hol kitoblarda keltirilgan. Imom Suyutiy va Sam‘oniy Imomni yoki uning ota-bobolaridan birining shu kasb bilan shug‘ullangani sababidan deb aytishadi. Mana shu ma‘lumot ishonchliroq hisoblanadi. Ixtiloflar qanchalik ko‘p bo‘lmasin Imomning shu nisbat bilan tanilganini bilish eng muhim ish.

Imom yana Bag‘dodiy yoki Hanafiy kabi nisbatlar bilan ham tanilgan bo‘lib, Bag‘dodiy nisbati Imomning Bag‘doddan ekanligiga, Bag‘dodda yashab faoliyat olib borganiga dalolat qiladi.

Hanafiy nisbati bilan tanilishi esa hanafiy mazhabida bo‘lganini, bu mazhabni zabardast imomlaridan biri bo‘lib himoya qilganini, mudofaa qilganini bildiradi.

Imom ziyolilar oilasida tavallud topdi. Imomning otasi Bag‘dod shahrida ilm gullab yashnayotgan davrda istiqomat qilar va o‘zi ham zamonasiga munosib olim va muhaddis inson bo‘lgan. Bag‘dod bu asrda Abbosiy xalifaligining ilmiy, madaniy poytaxti edi va bu haqiqat hamma tomonidan tan olingandi. Bu davr Bag‘dod shahrida kutubxonalar va madrasalarning keng yoyilishi bilan tanilgan, ilmiy-munozara dars halqalari tashkil qilingan.

Hanafiy mazhabining mo‘tabar kitoblari bo‘lmish “Hidoya” va “Xulosa” kitoblarida ham Imom Quduriyning fiqhiy qarashlari keltirilib, ismi qayta-qayta takrorlanadi.<sup>8</sup> Bu hanafiy mazhabida olimning fiqhiy qarashlarini naqadar muhim ekanligini belgisidir.

Tarjimai hol kitoblarida shofe‘iy mazhabi olimi Shayx Abu Hamid Isfaroiniy va Abu Toyiyb Tabariy bilan bahs-munozara olib borgan haqida qaydlar kelgan.<sup>9</sup> Ammo bu vaziyat olimlar orasiga sovuqchilik tushirmagan, balki imomlar bir-birga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. Chunki orada bo‘lib o‘tgan bahs-munozaralar ilm uchun, bo‘lib, shaxsiy xusumat aralashmagan. Bu imomlar bahslarga aslo nizo, yutish, kimnidir yerga urish yoki qaysidir mazhabni qoralash uchun kirishishmagan, balki ilmiy haqiqatlarni ochish uchun kirishishgan. Buning isbotini tarjimai-hol asarlarida imomlarni bir birlari haqida aytgan maqtoqli gaplarida ko‘rishimiz mumkin.<sup>10</sup>

Imom Quduriy Abu Hamid al-Isfaroiniyi juda hurmat qilgan, hatto Imom Shofe‘iydan ko‘ra afzal bilgan. Abu Is‘hoq Sheroziy Imom Quduriyini: “Shayx Abu

<sup>8</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. Doru ihyoil kutub“, Qohira: 1993, – B. 247.

<sup>9</sup> Ibn Xallikon. Vafayatul a‘yon. “Dorus sodr”, Bayrut: 1978, – B. 79.

<sup>10</sup> Abdulloh ibn Asa‘d Yafi‘iy. Miraatul jinan. “Dorul maktabatil ilmiyya”, Bayrut: 1997, – B. 37.

Hamid mening nazdimda Shofe'iydan ko'ra faqihroq" degan gapini keltirib, Imom Abu Is'hoq Sheroziyning o'zi Imom Quduriyning bu gapiga e'tiroz bildirgan. "Bu gapning ahamiyati yo'q, Imom Shofe'iy Imom Abu Hamiddan ko'ra bilimdonroq va Imom Shofe'iyning martabasi yuqoriroq" degan ma'noda raddiya bildirgan.

Imom Quduriy haqqiga olimlar tomonidan juda ham ko'p maqtoqlar yog'ilgan. Hattoki Xatib Bag'dodiy olimni sifatlarini ulug'lab "Uning fazilatlarini dushmanlar ham inkor qilmaydi" deb ta'rif bergan. Ya'ni olimning ilmli va dindor ekanligini hech kim rad qilolmaydi, hattoki raqiblar ham e'tirof etadi degan ma'noda mubolag'a qilgan. Yana Xatib Bag'dodiy Imomni sodiq, rostgo'y, uzoqni ko'ra biladigan, gapga chechan, fiqhda zakovati bilan mohir deb ta'riflaydi.

Imom yashayotgan davr ham otasi yashagan davr kabi shar'iy ilmlar jadallik bilan rivojlanayotgan davr edi. Imom bilan juda ham ko'p mashhur olimlar zamondosh bo'lishgan. Ular qatoriga "Ta'sisun-nazor" asari muallifi 436-hijriy yil Buxoroda vafot etgan, mashhur qozilardan bir namoyonda bo'lgan Abu Zayd Dabusi, 448-hijriy sanada vafot etgan Shamsul-aimma Halvoni Buxoriy, 414-hijriy sanada vafot etgan Abu Ja'far Nasafi, "Tanbehul-g'ofilin", "Al-Fatavo" asarlari muallifi 375-hijriy sanada vafot etgan Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim Abu Lays Samarqandiy, mutafakkir olimlar Abu Abdulloh Hokim Naysoburiy, ikki haram imomi Juvayniy, Movardiy, Ibn Sibog', Xatib Ba'dodiy, Abu Is'hoq Isfaroiniy kabi ulug' shaxslar, faqihlar kiradi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek Imom yashagan davr ilm-fan rivojlangan davr edi. Bu davrda fiqh ilmi bilan bir qatorda boshqa shar'iy va tarix, hadisshunoslik va tilshunoslik fanlari ham rivojlanib bordi, bu sohaning yetuk namoyondalari ko'zga ko'rindi. Tilshunos olim, "Devonul-adab" asari muallifi, 370-hijriy sanada vafot etgan Is'hoq ibn Ibrohim Farobiy, "Al-Mustaxraj" asari sohibi 371-hijriy yilda vafot etgan Ahmad ibn Ibrohim ibn Ismoil ibn Abbos Imom Abu Bakr Ismoiliy, "Devonul-Xutob" muallifi, 374-hijriy sanada vafot etgan, mashhur xatib Abdurrohman ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Nubato, ko'plab mashhur asarlar muallifi, "Sunan" asari bilan tanilgan Ali ibn Umar ibn Ahmad Abulhasan Doraqutniy, Ibn Zulaq nomi bilan mashhur misrlik tarixchi Hasan ibn Ibrohim, "Maolimus-sunan" asari sohibi faqih Imom Abu Sulaymon Xattobiy, 389-hijriy sanada vafot etgan "Sahihul-Buxoriy" asarini rivoyat qilgan Muhammad ibn Makkiy Abu Haysam Kashmihoni, 395-hijriy yilda vafot etgan, sinonimlari alifbo tarzida tartiblab berilgan "Al-Mujmal va maqoyisul-lug'at" qomusi sohibi, tilshunos Ahmad ibn Foris ibn Zakariyyo Molikiy, "Al-Maqomat" asari sohibi "Badi'uz-zamon" nomi bilan mashhur 398-hijriy sanada vafot etgan Ahmad ibn Husayn ibn Yahyo Abu Fazl Hamadoni, hofiz Ahmad ibn Muhammad ibn Husayn Abu Nasr Kalobodiy, Ali ibn Muhammad ibn Abbos Abu

Hayyon Tavhidiy, tilshunos, adib Hasan ibn Abdulloh ibn Sahl Abu Hilol Askariy, faylasuf Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Sino, faylasuf Muhammad ibn Hasan ibn Haysam Abu Ali, Muhammad ibn Ahmad Abu Rayhon Beruniy shular jumlasidandir.

Imom Quduriyga bu ilmiy muhit o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi. Imom Qur‘oni Karimni to‘liq yod olgan, doimiy tilovat qilib yuradigan ziyoli shaxs bo‘lib voyaga yetdi. Turli xil shar‘iy ilmlarni, tafsir, hadis ilmi, aqida, fiqh, usulil fiqh va Imomning olim bo‘lib yetishishi uchun zarur bo‘lgan boshqa fanlarni ta‘lim oldi. Bu kabi ilmlarni puxta o‘zlashtirish uchun bir nechta olimlarga shogird tushdi. Ular:

1. Havshabiy nisbati bilan tanilgan 294-375-hijriy yilda yashab ijod qilgan Abu Husayn Ubaydulloh ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ahva Shayboniy. Abu Dovud Sijistoniy, Abdulloh ibn Is‘hoq Madoiniy kabi olimlardan hadis eshitgan. Ulamolar bu shaxsni ishonchli deb hisoblaganlar. Imom Quduriy bu ustozidan ozgina narsa rivoyat qilgan xolos.

2. Abu Bakr Muhammad ibn Aliy ibn Hasan ibn Ibrohim ibn Suvayd ibn Molik ibn Muoviya Anbariy. Olim 381- hijriy yilda vafot etgan, tug‘ilgan yili noma‘lum.

Bu olim ham ishochli olimlardan hisoblangan.

3. Islom tayanchi Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo ibn Mahdiy Jurjoniy. 398-hijriy sanada vafot etgan, tug‘ilgan yili noma‘lum. Abu Bakr Roziydan fiqh ilmini o‘rgangan. Umrining oxirida kasallikdan vafot etgan. Imom Abu Hanifa qabri yoniga dafn etilgan. “Tarjih mazhabi Abiy Hanifa” nomli asar yozib qoldirgan.

Imom Quduriy olimlik manzilasiga munosib insonlardan edi. U hayoti davomida ko‘plab kitoblar yozib, shogirdlar yetishtirdi.

Xatib nisbati bilan tanilgan 392- hijriy yilda Bag‘dodda tavallud topib, 463-hijriy yilda Bag‘dodda vafot etgan Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit Bag‘dodiy. Hayoti davomida ko‘plab shaharlarga safarlar qilgan, turli xil asarlar yozib qoldirgan, bir vaqtning o‘zida ham muhaddis ham tanqidchi bo‘lgan mashhur tarixchilardan biri.

Qozilarning qozisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Muhammad ibn Abdulmalik ibn Abdulvahhob Damag‘oniy. 398-478-hijriy yillarda yashab faoliyat olib borgan katta olim. Fiqhni Bag‘dodda Imom Quduriy va Saymariydan ta‘lim olgan.

Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad. Aqto<sup>11</sup> laqabi bilan mashhur. Fiqhda va hisob ilmida mohir bo‘lgan. 430- hijriy sanada Bag‘doddan Ahvozga ko‘chib o‘tgan va 474-hijriy sanada vafot etgunicha o‘sha yerda ilm tarqatish bilan shug‘ullangan.

<sup>11</sup> O‘g‘rilikda sherikchilik qilgani sabab chap qo‘li kesilganidan shunday laqab olgan.

Abdurrohman ibn Muhammad Saraxsiy. Fiqhni Imom Quduriydan o'rgangan. Basrada qozi lavozimida ishlagan. 439-hijriy yilda ramazon oyining 13-sanasida vafot etgan. "Takmilatu tajrid", "Muxtasarul-muxtasar fil-mujallad" asarlarini yozib qoldirgan.

Abu Horis Muhammad ibn Abu Fazl Muhammad Saraxsiy. Fiqhni Imom Quduriydan o'rgangan. Imom Quduriy shogirdini maqtab "Xurosondan undan faqihrog'i kelmagan"-degan. Shofe'iy olim Abu Sa'd al-Mutavalliy bu olim haqqiga ko'p maqtov gaplar aytgan. Hayoti davomida melanxoliya kasalligiga chalinganligi aytiladi. Bag'dodda 12 yil istiqomat qilgan.

Faqih, nahviy olim, qozi al-Mufazzal ibn Mas'ud ibn Muhammad ibn Yahyo ibn Abu al-Faraj. 442-hijriy sanada vafot etgan tug'ilgan sanasi ma'lum emas, ammo 370-hijriy yillardan so'ng tavallud topgani tahmin qilinadi. Fiqhni asosan 2 ustozlaridan Imom al-Quduriy va as-Saymariylardan o'rgangan. Damashq va Bag'dod va boshqa shaharlarda hadis eshitib, yig'gan. Bir necha kitoblar yozgan. Shular jumlasidan:

1. "Kitabu axborin-nahviyin"

2. Shofe'iy'larga raddiya tarzda yozilgan "Kitabut-tanbih" asari. Bu kitobda Shofe'iyning Qur'oni Karim va hadislarga xilof qilgan o'rinlarini zikr qilib o'tgan.

3. Oyoqlarni yuvish vojibligi borasida risola yozgan.

Imom Muhammad ibn Ali Muaddibdan<sup>12</sup> va Ubaydulloh ibn Muhammad Havshabiydan hadis o'rgangan va rivoyat qilgan. Islom huquqshunosligi hadislar bilan bevosita aloqadorligi sabab Imom Quduriy hadislarni o'rgangan ammo muhaddislik asosiy sohasi bo'lmagani tufayli ba'zi hadislarni rivoyat qilish bilan cheklangan ya'ni hadis rivoyat qilish bilan ko'p shug'ullanmagan. Qozi Abu Abdulloh Damag'oniy<sup>13</sup> va "Tarixi Bag'dod" asari muallifi Xatib Bag'dodiy bu kishidan hadis rivoyat qilganlari haqida ma'lumotlar bor.<sup>14</sup>

Imom Quduriy fiqhni Abu Abdulloh Muhammad ibn Yahyo Jurjoniyan ta'lim oladi. Va faqih Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad Imomdan fiqhni o'rganadi va Quduriyning "Muxtasar"iga sharh bitadi.<sup>15</sup>

Aql-zakovati bois fiqhda mohir bo'lgan. Iroq ahli orasida hurmatli kishilardan sanalgan va Iroqdagi Abu Hanifa va uning ergashuvchilarini boshqarish Imom Quduriy zimmasiga o'tgan. Imom nazr (mantiq) ilmini ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, Tajrid asarini yozishda bu asqatgan. Imom Sofadiyni "Al-Vofiy" asarida nazr

<sup>12</sup> Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyaru a'lamun nubalo. "Risola", Bayrut : 1996

<sup>13</sup> Abdulkarim ibn Muhammad Sam'oniyy. Al-Ansob. "Dorul maorif", Haydarobod: 1962, – B. 579.

<sup>14</sup> Ibn Xallikon. Vafayatul a'yon. "Dorus sodr", Bayrut: 1978, – B.79.

<sup>15</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. Doru ihyoil kutub", Qohira: 1993, – B. 247.

soʻzi oʻrniga nazm soʻzi ishlatilgan<sup>16</sup>, yaʼni “r” va “n” harflari almashib qolgan. Agar Nazr soʻzini nazm sifatida eʼtiborga oladigan boʻlsak Imom Quduriy sheʼriyat ilmida ham salohiyatli boʻlgan degan maʼno kelib chiqadi. Lekin tarjimai- hol asarlarini oʻrganish davomida koʻplab asarlarda nazr soʻzi ishlatilganini guvohi boʻlish mumkin. Demak Sofadiyni bu asarida imloda biroz xatolik borligini anglash mumkin.

Imom Quduriy fiqh, xilof, hadis, mantiq ilmlaridan tashqari qiroat ilmida ham mashhur boʻlgan.<sup>17</sup> Fiqh ilmi bilan shugʻullanganlar odatda qomusiy va Qurʼoni karimni yoddan biladigan insonlar boʻladilar. Oʻsha davrda faqihni ham olim ham qori boʻlishi odatiy hisoblangan. Ammo qiroat ilmini, qiroat turlarini ham bilish bu fazilat hisoblanib, kishi ziynatiga ziynat qoʻshgan.

Abu Bashr Muhammad ibn Umar va Qozi Abu Qosim Tanuxiy aytishlariga koʻra Imom Quduriy 362-hijriy, milodiy 973-yilda tavallud topgan. Imom Quduriy dushanba, rajab oyining 5-kuni hijriy 428-yil, milodiy 1037-yil 24-aprel kuni 63 yoshida vafot etadi Abu Xalaf yoʻli boʻyidagi uyiga dafn qilinadi, ammo oradan biroz vaqt oʻtib Imomning jasi Abu Bakr Xorazmiy qabri yoniga, Mansur koʻchasidagi qabristonga koʻchirilgan.<sup>18</sup> Baʼzi manbalarda Imomni vafot etgan kuni yakshanba emas dushanba<sup>19</sup>, 5-rajab emas 15-rajab kuni deb koʻrsatilgan.<sup>20</sup>

Imom al-Quduriy hanafiy mazhabi olimlari nazdida yuqori baholanuvchi, hurmatga sazovor bir necha asarlar taʼlif qildi. Ular:

1. “Muxtasar”
2. “Sharh muxtasaril-Karxiy
3. “Juzʼun fil-hadis”
4. “Adabul qozi ala mazhab Abu Hanifa”
5. “Tajrid”<sup>21</sup>
6. “Masoilul-xilaf baynal-hanafiyyin”<sup>22</sup>
7. “Taqrib”-Abu Hanifa va asʼhoblari orasidagi xiloflar dalillarsiz yoritilgan 1 jildik asar.
8. “Taqrib”- Abu Hanifa va asʼhoblari orasidagi xiloflar har bir tomonning dalillari bilan yoritilgan bir necha jildik asar.
9. “Muxtasar”.

Avtobiografik asarlarda Imom bu “Muxtasar”ini oʻgʻil farzandiga atab jamlagani haqida ham maʼlumotlar berilgan.<sup>23</sup> Baʼzi manbalarda Imom farzandi

<sup>16</sup> Salohiddin Xalil ubn Oybek Sofadiy. Al-Vofiy bil-vafayot. “Dor ihyoit turosil-arobiy”, Bayrut: 2000, – B. 209.

<sup>17</sup> Ibn Kasir. Al-Bidoya van-nihoya. “Doru Ibn Kasir”, Bayrut: 2015, – B. 6116.

<sup>18</sup> Ibn Xallikon. Vafayatul aʼyon. “Dorus sodr”, Bayrut:1978, – B. 79.

<sup>19</sup> <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/imom-quduriy>

<sup>20</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. “Doru ihyoil kutub”, Qohira: 1993, – B. 249.

<sup>21</sup> <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/imom-quduriy>

<sup>22</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. Doru ihyoil kutub“, Qohira: 1993, – B. 248.

<sup>23</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohiril muziyya. Doru ihyoil kutub“, Qohira: 1993, – B. 248.

uchun atab fiqhiy kitob yozgani bilan, unga fiqhni ta'lim bermagan, faqih olim qilib yetishtirmagan va farzandini yosh yigitlik holida vafot etgan deb aytib o'tilgan.<sup>24</sup>

Imom Quduriy hanafiy mazhabida mashhur "Muxtasar" nomli kitob yozib qoldirgan. "Muxtasar" asari asrlar osha qayta-qayta nashr qilingan. 19-asr boshlarida kitobning ba'zi qismlari fransuz va nemis tillariga tarjima qilina boshladi. Bu kitob hanafiy olimlari orasida "Al-Kitob" nomi bilan ham mashhur, bu nomni Imom Quduriyning shu kitobi uchun maxsus termin qilib olganlar.

"Muxtasar" kitobi olimlar tomonidan e'zozlagan kitoblardan biridir. Hattoki vabo va qattiq qiyinchiliklar vaqtida bu kitobni o'qib, foydasini tajribadan o'tkazib ko'rishgan. Hoji Xalifa bu kitob haqida: "U buyuk imomlar orasida keng qo'llaniladigan, shuhratini ta'riflab bo'lmaydigan kuchli mo'tabar matndir" va Karl Brokkelman esa: "Uning hanafiylar haligacha undan dars beradigan mashhur "Muxtasar" kitobi bor degan. Bu kitobning nikoh, jihod, siyrat boblari mustaqil, alohida tarzda nashr qilingan.

"Al-Muxtasar" kitobi ko'p sharhlangani bilan ham mashhurdir. Bu kitobni Ismoil ibn Husayn Bayhaqiy, Imom Quduriyning shogirdi Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad Aqto', Abdurrob ibn Mansur G'aznaviy, Jamoliddin Abu Said, Ali ibn Ahmad ibn Makkiy Roziy, Muhammad ibn Ibrohim Roziy Nuriy, Abu Is'hoq Ibrohim ibn Abdulkarim Mavsiliy (oxiriga yetmagan), Muhammad ibn Rosul Mavqoni, Najmiddin Muxtor ibn Mahmud Zohidiy, Hamididdin Ali ibn Muhammad ibn Ali Zarir Roshiy Buxoriy, Ibn Muhaddis nomi bilan tanilgan Ibrohim ibn Abdurrazzoq ibn Xalaf Ras'aniy (oxiriga yetmagan), Abu Bakr ibn Ali Haddod Ibodiy va boshqa ko'plab olimlar sharhlaganlar.

Abu Hasan Ali ibn Abu Bakr Marg'inoniy Muhammad ibn Hasanning "Jomeus-Sag'ir" va Imom Quduriyning "Muxtasar"ini o'zining mashhur "Bidaya tul-mubtadiy fil-furu'" muxtasarida jamladi. Imom Muzaffariddin Ahmad ibn Ali ibn Sa'lab Bag'dodiy ham o'zining muxtasari "Majmual-bahroyn va multaqoun-nahroyn" asarida "Muxtasar"dagi masalalarni va boshqa masalalarni jamlab chiqqan. Bu asarga ham ko'plab sharhlar yozilgan.

Imom shuningdek mashhur "Muxtasar" asaridan tashqari "Sharh Muxtasar Karxiy" asari muallifi ham hisoblanadi. "Sharh muxtasail Karxiy kitobida Imom Quduriy mazhab ulamolarning qavllarini dalillari bilan keltirgan, ba'zi o'rinlarda tarjih ham qilgan, yana ba'zi o'rinlarda muaxxir faqihlarning Imom Molik, Shofe'iy, Sufyon Savriy va Ibn Abu Laylo va boshqalarning ixtiloflarini qayd qilib ketgan.

Imom kitobning muqaddimasida o'quvchilaridan birining yoki boshqa bir so'rovchining gapiga ko'ra bu asarni ta'lif qilishga kirishayotganini zikr qilib ketgan.

<sup>24</sup> Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohirul muziyya. Doru ihyoil kutub", Qohira: 1993, – B. 249.



Bu kitob o‘z asrida eng muhim muxtasarlardan biri bo‘lgan, Imom Karxiyning muxtasariga sharh yozganlar ilmda yuqori martabali odam hisoblangan.

### **XULOSA**

Imom Abu Husayn Ahmad ibn Muhammad Quduriyning ilmiy faoliyati, hayot yo‘li va asarlari fiqh ilmi rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Uning ilmiy merosi, ayniqsa, hanafiy fiqhida asosiy muhim manbalaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Imom Quduriyning ilmiy yondashuvi va metodologiyasi zamonaviy fiqhiy tadqiqotlarda ham o‘z o‘rnini saqlab kelib, o‘z davrining ilmiy talablariga ham javob beradi.

Imomning ilmiy merosini tahlil qilish, o‘sha davrda yuzaga kelgan ijtimoiy va diniy sharoitlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Maqolada yoritilgan asarlar uning islom huquqshunosligiga qo‘shgan hissasi va hanafiy mazhabidagi yondashuvining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, Imom Quduriyning ilmiy merosi nafaqat o‘sha davrda, balki hozirgi kunda ham islom huquqshunosligi sohasida o‘zining muhimligini saqlab qolgan. Uning asarlari va ilmiy faoliyati fiqhiy tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi va ilmiy dunyoda uning o‘rni yanada mustahkamlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abulqodir ibn Muhammad Qurashiy. Javohirul muziyya. “Doru ihyoil kutub”, Qohira: 1993, – 3423 b.
2. Ibn Xallikon. Vafayatul a’yon. “Dorus sodr”, Bayrut: 1978, – 494 b.
3. Ibn Kasir. Al-Bidoya van-nihoya. “Doru Ibn Kasir”, Bayrut: 2015, – 10254 b.
4. Salohiddin Xalil ubn Oybek Sofadiy. Al-Vofiy bil-vafayot. “Dor ihyoit turosil-arobiy”, Bayrut: 2000, – 8600 b.
5. Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy. Siyaru a’lamun nubalo. “Risola”, Bayrut: 1996, – 17/764 b.
6. Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy. Al-Ansob. “Dorul maorif”, Haydarobod: 1962, – 5318 b.
7. Abdulloh ibn Asa’d Yafi’iy. Miraatul jinan. “Dorul maktabatil ilmiyya”, Bayrut: 1997, – 3/382 b.
8. Ahmad ibn Muhammad Quduriy. Tajrid. “Dorul salom”, Qohira: 2004, – 6576 b. Muhaqqiq Dr. Ali Juma Muhammad, Dr. Muhammad Ahmad Siroj.
9. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/imom-quduriy>